

QASHSHOQLIK DARAJASINI KAMAYTIRISH BO'YICHA XITOIY TAJRIBASI

Meylieva Dilafruz Uktam qizi

JIDU, Xalqaro iqtisodiyot va menejment

Magistratura 1-kurs

Tel:+998930089904

Meylievadilafruz@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6830953>

Xalqaro miqyosdagi qashshoqlikni kamaytirishda Xitoyning hissasi ulkan bo'lib u 70 foizni tashkil qiladi. 1978-yildan keyingi reformadan so'ng Xitoyning eng katta mashtabdagi qashshoqlikni kamaytirish hamda tezkor iqtisodiy o'sish Xitoyning eng katta yutuqlaridan edi. Mahalliy hisobdagi o'lchovda 1981-yildagi kambag'allik chizig'idan pastda yashovchi fuqorolar soni 200 milliondan 2002-yilda 28 millionga tushgan deb taxmin qilinadi. Jahon bankining 1 dollarlik kunlik daromadga asoslangan kambag'allik hisobi soni bo'yicha esa qashshoqlar soni bu davr ichida 490 milliondan 88 milliongacha pasaygani aniqlangan. Xitoyda qashshoqlik darajasidagi o'zgarish iqtisodiy o'sish bn chambarchas bog'liq edi, iqtisodiyot gullagan 80 va 90- yillar o'rtasigacha mamlakatda katta mashtabda qashshoqlar soni kamayganligini hamda tengsizlik qisqarganligini ko'rishimiz mumkin.

80-yillarning boshida mamlakatdagi shaharda yashovchi aholining 0.3 foizi qishloqda yashovchilarning esa 28 foizi o'ta kambag'allikda yashar edi. Shuning uchun ham hukumat qashshoqlikni kamaytirishda ko'proq qishloq hududlariga ahamiyat bera boshladi. Xitoyning qashshoqlikni kamaytirish strategiyasi kambag'al aholiga imkoniyatlar yaratish, ularga qishloq hududida daromad manbalarini yaratish hamda chekka hududlarda infostrukturalarni yaxshilash uchun investitsiyalarga yo'l ochish va insosn kapitalini rivojini qo'llab quvvatlashdan iborat edi.

Xitoyning qashshoqlikni kamaytirish siyosatini 4 ta fazaga bo'lish mumkin. Ular: 1) 1978-1985-yillardagi qishloq xo'jaligi reformasi, 2) 1986-1993-yillardagi qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan milliy dasturlar, 3) 1994-2000-yillar uchun 8-7 Plani va 4) 2001-2010-yillar uchun mo'ljallangan Yangi asr qishloqlardagi qashshoqlikni yo'q qilish plani.

Qishloq xo'jaligi reformasi

1978 yildan keyingi islohotlar davrining dastlabki yillarida eng dolzarb muammo qishloqlarni rivojlantirish hamda agrar hududlardagi islohotlar orqali iqtisodiy o'sish edi. O'sha kezlarda milliy iqtisodiyot turg'unlikda va qashshoqlik esa butun mamlakat bo'ylab keng tarqalgan edi, bu oqibatlarining sabablari o'n yillik madaniy inqilobning zarbalari hamda iqtisodiy faoliyatga o'rnatilgan cheklovlar edi. Qishloq iqtisodiyotini rivojlantirish uchun

Xitoy hukumati qishloqlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda logistikani rivojlantirish kabi institutsional islohotlardan boshlagan Asosiy institutsional islohot xo'jalik ma'suliyatini ijro qilgan yer islohoti edi. Dastlabki qishloq islohotlari qashshoqlikni kamaytirish bo'yicha ajoyib natijalarga erishadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish va qishloq sanoati rivoji don hosildorligidagi kuchli o'sishi (har 5,7 foiz) ni tashkil etsa, qishloq daromadlarini yiliga real 15 foizga oshirdi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishi natijasida juda qashshoqlashgan hududlarda daromad ham daromad anchayin yaxshilandi, natijada milliy hisobdagi kambag'allik 1978-yilda 250 millionta bo'lsa, 1985-yilda 125 milliontani tashkil qilsa edi, o'z navbatida xalqaro hisob kitoblarga ko'ra kuniga 1 dollardan kam daromad qiladigan insonlar soni 49 foizdan 24 foizga kamayadi.

Qashshoqlikni kamaytirish bo'yicha Milliy Maqsadli Dasturlar (1986-1993)

Dastlabki qishloq islohotlarining qashshoqlikda ta'sir etgandan so'ng, 1986-1993 yillarda qashshoqlik soni kamayishi sekinlashadi 1980-yillarning o'rtalariga kelib, qashshoqlikni kamaytirish uchun yangi tizimni ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi va yettinchi besh yillik rivojlanish rejasi (1986-1990) yillar uchun yangi tizim ishlab chiqildi. 1980-yillarning o'rtalarida boshlangan qishloq qashshoqligini kamaytirish dasturlari turli xil aktyorlar, tashabbuslar va moliyalashtirish kanallari orqali amalga oshirilish belgilanib olindi. Bunda davlat kengashi asosiy ro'l o'ynab, kambag'allikni kamaytirish bo'yicha yetakchi guruhni tashkil etadi. Dasturda Markaziy hukumat subsidiya hamda kredit dasturini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus mablag'lar ajratdi hamda, oziq-ovqat (FFW) dasturi va iqtisodiy qoloq hududini rivojlantirish jamg'armasi grantlarini ishlab chiqdi. Subsidiya kreditlari sanoat va qishloq xo'jaligi, uy va korxonalarga yo'naltiriladi. Oziq-ovqat-uchun-ish dasturi tuziladi hamda qishloq xo'jaligining infratuzilmani rivojlantirishga katta ahamiyat qaratiladi. Davlat byudjet grantlaridan foydalanish, barcha sohalarda kambag'al aholini qo'llab-quvvatlanaydigan investitsiyalar taqdim etildi.

Biroq 1986-1993 davrini 1978-1985 bilan taqqoslaganda, o'sish sur'ati aholi jon boshiga qishloq xo'jaligidan qo'shilgan qiymat 9,7 foizdan 3,4 foizga tushib, o'sish aholi jon boshiga sof daromad darajasi 12,2 foizdan 2 foizga tushib ketdi. Bunga sabab qishloq xo'jaligi maxsulotlari narxlarining nisbiy pasayishi va 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida qishloq va shaharlar o'rtasidagi savdo shartnomalariga putur yetishi edi. Natijada, fermerning aholi jon boshiga yillik sof daromadi hatto pasayib ketdi hamda shahar aholisi va qishloq aholisi o'rtasida daromad tengsizligi kengaydi. Hisob-kitoblarga ko'ra 1994,-yilda qashshoqlik 18 foiz 18 qishloq aholisi kuniga

1 dollardan kam mablag' ishlab toishar edi. Sonlarda esa bu ko'rsatgich, 80 milliontani tashlik etdi hamda 1985-yilga nisbatan bor yo'g'i 45 millionga qisqardi.

8-7 Rejasi (1994-2000)

Ushbu reja qolgan 80 million kambag'al insonlar hayotini yaxshilash uchun mo'ljallangan edi.

8-7 rejasida bir nechta maqsadlar quidagicha ko'rsatilgan

- kambag'al oilalarga yer ajratib berish, sotishga asoslangan dehqonchilik hamda o'rmonchilikni rivojlantirish hamda deqon va chorvachilikga ixtisoslashmagan ish o'rinlarini yaratish
 - aksariyat shaharchalarni sifatli yo'l va elektr energiyasi bilan ta'minlash ko'pgina kambag'al qishloqlar uchun ichimlik suvidan foydalanishni yaxshilash,
 - universal boshlang'ich ta'limni ta'minlash va asosiy profilaktika va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish,
 - Qirg'oq bo'ylarida yashi sharoitli okruglarga asos solish
 - Qashshoqlikni kamaytirish uchun mo'ljallangan investitsiyalarni qo'llab quvvatlash hamda kam samara berayotgan moliyalashtirish tizmlarini alternativlariga o'zgartirish hamda kambag'allikni pasaytirish uchun moliyalashtirishni takomillashtirish
 - Qashshoqlikni pasaytirish dasturining ijrosini hukumat vazirliklari hamda mahalliy hokimiyat hamda xalqaro vazirliklar zimmasiga yuklash
- Tahlillar shuni ko'rsatadiki 7-8 plani kambag'allikni pasaytirishda o'rtacha 10% samaradorlik olib kelgan.